lini soddalashtirish, fikr-mulohazaning ta'sirchanligini oshirish, qisqartmalarni standartlashtirish hamda talaba faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Umuman olganda, ta'limiy diskursni tilshunoslikda o'rganish, bir tomondan, o'qituvchi va talaba rollari o'rtasidagi kuch va masofa nisbatini, baholash va me'yor belgilash mexanizmlarini hamda janrlar zanjirini til vositasida qanday ishlashini ochishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy format va kanal o'zgarishlari (minimatnlar, raqamli platformalar, qisqartmalar) semantik zichlik va pragmatik inferensiyani kuchaytirayotgani sababli, tahlilda betaraf ko'rinadigan til vositalarining real pragmatik oqibatlarini ham ko'rish zarurligini ko'rsatadi, shu tariqa, ta'limiy diskurs tahlili shaffof va tushunarli kommunikatsiya yaratish, baholash tilini adolatliroq qilish hamda talaba agentligini real darajada kuchaytirish bo'yicha nazariy asos va amaliy yo'l-yo'riq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Humes W. The Discourses of Educational Management. Journal of Educational Enquiry. 2000, vol. 1, № 1, p. 35–53.

(2). Hyland K. English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. London, Routledge, 2006, 356 p.

(3). Kharkovskaya A.A., Ponomarenko E.V., Radyuk A.V. Minitexts in modern educational discourse: Functions and trends. Training, Language and Culture. 2017, vol. 1, № 1, p. 62–76.DOI: 10.29366/2

(4). Drozhashchikh N.V. Linguistic Structures in English Diachronic Educational Discourse. TSU Herald (Вестник Тюменского государственного университета) 2012, № 1, с. 37–42.

(5). Mykhalchuk N., Onufriieva L. Psychological Analysis of Different Types of Discourse. Проблеми сучасної психології. Зб. наук. праць., 2020, вип. 50, с. 188–210. DOI: 10.32626/2227-6246.2020-50.188-210.

(6). Сафаров Ш. (2008). Прагмалингвистика. Тошкент, ЎзМЭ, 285-bet.

(7). Раупова Л. (2011). Диалогик нутқнинг дискурсив талқини. Тошкент, "Фан".

(8). Bobojonova S.Y. (2025). Ta'limiy diskursda lingvomadaniy me'yorlar. Konferensiya, 1(2), 779–785-betlar.

Saidoripova Dilorom Saidaxmad qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi)

FORS TILIDAGI RAVISH YASOVCHI آنه *[ĀNE]* SUFFIKSINING گانه *[GĀNE]*, وانه *[VĀNE]* HAMDA یانه *[YĀNE]* ALLOMORFLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Tilshunoslikda lug'at tarkibining boyib borishida so'z yasashning affiksatsiya usuli muhim o'rin tutadi. Mazkur usulda so'z asosiga turli affikslar – prefiks, infiks va suffikslar qo'shilishi orqali yangi leksik birliklar hosil qilinadi. Fors tilida, ayniqsa, ravish yasovchi suffikslar va ularning suffiksal allomorflari yordamida ravish hosil qilish keng rivojlangan usullardan biri sanaladi. Ushbu maqolada tilshunoslikda allomorf tushunchasi to'g'risidagi nazariyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, fors tilida ravish yasovchi suffiksal allomorflarning funksional-semantik xususiyatlari hamda ularning kontekstual qo'llanishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot doirasida آنه [āne] suffiksi hamda uning گانه [gāne], وانه [vāne] va یانه [yāne] kabi suffiksal allomorflari ilmiy manbalar va badiiy adabiyotlardan olingan misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: suffiks, allomorf, suffiksal allomorf, affiksatsiya, yasama ravish.*

Саидорипова Дилором Саидахмад қизи (Ташкентский государственный университет востоковедения, старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики)

АНАЛИЗ АЛЛОМОРФОВ گانه *[GĀNE]*, وانه *[VĀNE]* И یانه *[YĀNE]* СУФФИКСА آنه *[ĀNE]*, ОБРАЗУЮЩЕГО НАРЕЧИЯ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация*. В лингвистике важную роль в обогащении словарного состава языка играет аффиксационный способ словообразования. При данном способе новые лексические единицы образуются путём присоединения к основе слова различных аффиксов – префиксов, инфиксов и суффиксов. В персидском языке одним из широко развитых способов является образование наречий с помощью суффиксов и их суффиксальных алломорфов. В данной статье анализируются теории, связанные с понятием алломорфа в лингвистике. Также рассматриваются функционально-семантические особенности суффиксальных алломорфов, образующих наречия в персидском языке, а также вопросы их употребления в контексте. В рамках исследования суффикс آنه [āne] и его суффиксальные алломорфы گانه [gāne], وانه [vāne] и یانه [yāne] анализируются на основе примеров, заимствованных из научных источников и художественной литературы.*

Ключевые слова: *суффикс, алломорф, суффиксальный алломорф, аффиксация, производное наречие.*

Saidoripova Dilorom Saidaxmad kizi (Tashkent State University of Oriental Studies Senior Teacher at the Higher School of Iranian and Afghan Studies)

ANALYSIS OF THE ALLOMORPHS گانه *[GĀNE]*, وانه *[VĀNE]*, AND یانه *[YĀNE]* OF THE SUFFIX آنه *[ĀNE]* FORMING ADVERBS IN THE PERSIAN LANGUAGE

Annotation. *In linguistics, the affixation method of word formation plays an important role in enriching the vocabulary. In this method, new lexical units are created by adding various affixes – prefixes, infixes, and suffixes to a word stem. In Persian, the formation of adverbs using suffixes and their suffixal allomorphs is considered one of the widely developed methods. This article analyzes theories related to the concept of allomorphs in linguistics. It also examines the functional-semantic features of suffixal allomorphs that form adverbs in Persian, as well as their contextual usage. Within the scope of the study, the suffix آنه [āne] and its suffixal allomorphs گانه [gāne], وانه [vāne], and یانه [yāne] are analyzed based on examples taken from scholarly sources and literary works.*

Keywords: *suffix, allomorph, suffixal allomorph, affixation, derivative adverb.*

Kirish (Introduction). Tilshunoslik ilmida o‘z yechimini kutayotgan juda ko‘plab masalalar mavjud. Ana shunday masalalardan biri bo‘lgan allomorflik hodisasi ham ancha vaqtdan beri dunyo tilshunoslarining diqqatini tortib kelmoqda. Eroniy tillar, xususan, fors tilida so‘z yasalishining turli usullari bilan bir qatorda, affiksatsiya usuli, ya’ni, asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali yangi ma’no anglatuvchi so‘z vujudga keltirilish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur usul orqali lug‘at tarkibidagi yangi so‘zlar miqdori oshirilib boradi. Bunday so‘z yasash jarayoni nafaqat tilning leksik boyligini oshirishga xizmat qiladi, balki uning morfologik va semantik tizimini ham boyitadi. Fors tilida, xususan, ravish yasovchi suffikslar va ularning suffiksal allomorflari yordamida hosil qilingan yasama ravishlar tilning grammatik strukturasi va stilistik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan, allomorflik hodisasi tilning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini chuqurroq o‘rganish uchun muhim ilmiy masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘tgan davr mobaynida morfologiya, affiksatsiya, affiksal morfemalar bo‘yicha ham talaygina tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, morfemika, so‘z yasovchi morfemalar va ularning variantlar, allomorflar yuzasidan o‘zbek tadqiqotchilaridan A. Hojiyev, M.Irisqulov, R.Rasulov, Yevropa tilshunos olimlaridan K.A.Timofeyev, T.D.Chxeidze, eronlik taqdiqotchilardan Iron Kalbosi, Hasan Anvari, Vido Shaqqoqiylar salmoqli ishlar olib borishgan bo‘lsa, fors tilining morfofonologiyasiga oid masalalari bo‘yicha o‘zbek tilshunoslaridan A.A.Vohidov, rus tilshunoslaridan L.S.Peysikov, Y.A.Rubinchik hamda Ostrovskiylar turli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirishgan. Ularni atroflicha o‘rganib chiqish maqolaning tadqiqot obyektini tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu maqolada struktur tahlil, qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil, funksional tahlil, semantik tahlil hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tilshunoslikda allomorf tushunchasiga tuli xil qarashlar mavjud bo‘lib, ba’zi olimlar allomorfni bir morfemaing variantlari shaklida o‘rganishsa, ba’zilar morfologik alternatsiyalar, yana boshqa olimlar leksik morfemaning alternantlari yoki fonemaning variantlashuvi hodisasi kabi tushunchalar bilan atashadi.

Allomorf tushunchasiga o‘zbekistonlik tilshunos olim A.Hojiyev allomorfga morfemaning variantlari sifatida qaraydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Morfemaning har qanday qurshovda ham biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘makchi morfema morfemaning variantlari hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi -day, -dek morflari erkin qo‘shilaveradi. Demak, variant holatida gulday-guldek kabi affiksning variantlari affiksning fonetik tovush tarkibi jihatidan turlari hisoblanadi” [4;21-b.].

Yana bir o‘zbek tilshunosi M.T.Irisqulov A.Hojiyevning yuqoridagi fikrlariga qo‘shilgan holda allomorf tushunchasiga quyidacha ta’rif beradi: “Morf va morfema hamma vaqt bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo‘lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba’zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkin. O‘zbek tilida yo‘nalish ma’nosi turli qo‘shimchalar bilan amalga oshiriladi: -ga, -ka, -qa. Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon boladi. Odatda, bir morfemaga kiruvchi morflar shu morfemaning variantlari yoki allomorflari deyiladi. Demak, allomorf allomorf deb, turli shaklga ega bo‘lgan lekin bir xil ma’no anglatadigan va bir morfemani tashkil etadigan morflarga aytiladi” [1;144-b.] hamda olim allomorflarga misol tariqasida rus tilidagi [и], [ы], [а], [я] kabi ko‘plikni ifodalovchi suffiksal allomorflarni keltiradi.

R.Rasulov fikriga ko‘ra, “Allomorf morfemaning varianti bo‘lib, alohida morf sifatida o‘ziga mos, muvofiq keladigan so‘z shakli tarkibidagina ishtirok etadi. Allomorf sifatida kuzatiladigan har bir morning qo‘llanilish imkoniyati chegaralangan bo‘lib, u faqat o‘zi uchun qulay bo‘lgan sharoitda yuzaga chiqadi, tanlab qo‘shiladi. Morfning allomorfning biri o‘rnida ikkinchisi ishlatilmaydi” [2;221-b.]. Olim o‘z fikrining isboti tariqasida o‘zbek tilidagi ushbu misollarni keltiradi: tonggi – tongki, kechki – kechgi. Olim o‘z nazariyasini davom ettirarkan, “bunga fonetik vaziyat, fonetik shakl va semantika yo‘l qo‘ymaydi. Demak,

allomorflar qo‘llanadigan so‘z formalari qanday qabul qilingan bo‘lsa, shunday shaklda namoyon bo‘ladi” deya ta’kidlaydi.

Maqolamizning asosiy obyekti bo‘lgan fors tilidagi ravish yasovchi allomorflarning tabiatini aniqlash uchun albatta Eron tilshunosligida allomorf tushunchasiga qanday qarash mavjudligini aniqlash maqsadida Eronlik tilshunos Iron Kalbosining nazariya va qarashlariga yuzlanamiz. Olim o‘zining fors tili grammatikasiga oid kitoblarida morfni *vāž* deb atab unga quyidagicha ta’rif beradi: “Tilning ma’noli yoki shaklga ega bo‘lgan eng kichik birligi morf deb ataladi va tilning grammatik birliklari sifatida so‘z yasalishida ishlatiladi. Morf mavhum ma’noga ega tushunchadir, uning obyekti, ya’ni, yozuvdagi ifodasi morfema (*vāžak*), uning variantlarini (*gunehā-ye važak*) allomorf deb ataladi” [5;21-b.].

Yana bir eronlik tilshunos V.Shaqqoqiyning ta’rifiga ko‘ra, “til qurilishida fonetik, leksik, grammatik va morfologik sharoitlarga ko‘ra qo‘llanadigan morfemaning turli ko‘rinishlari “allomorf” deb ataladi. Har bir morfema unga fonetik jihatdan o‘xshash, bir xil ma’no yoki vazifani ifodalovchi, o‘zaro komplementar, ya’ni to‘ldiruvchi taqsimotda bo‘lgan va oldindan kutiladigan allomorflar sinfining vakili hisoblanadi. Har bir allomorf ma’lum fonetik, fonologik, leksik, grammatik yoki morfologik xususiyatlar taqozosi bilan maxsus o‘rinlarda qo‘llanadi” [8;61-b.].

Ko‘rinib turibdiki, har bir olimning o‘z fikri va qarashlari hamda fikrlariga isbotlari mavjud. Ko‘tarilgan masalaning yechimini topish uchun Rus tilshunos olimi L.S.Peysikovning allomorf to‘g‘risidagi fikrlarini tahlil qilamiz. Olim allomorf tushunchasiga leksik morfemaning alternantlari deya ta’rif berib, unga quyidagicha izoh berib, allomorflarlik hodisasi uchun quyidagi talablarni qo‘yadi:

1) bir ma’no va vazifaga ega bo‘lsalar;

2) o‘xshash qurilmalarda o‘zaro o‘rin almasha olsalar;

3) faqat o‘zi ishlatiladigan o‘rinlarga ega bo‘lsalar;

4) umumiy va o‘xshash tashqi ko‘rinishga, nisbiy fonetik umumiylikka ega bo‘lsalar [3;29-b.].

Bundan kelib chiqadiki, so‘z yasovchi affiksal allomorflar bu so‘z yasovchi bir morfemaning turli variantari hisoblanadi va allomorflar qurshovda fonetik shartlashuvdan hosil bo‘ladi. Ravish yasovchi آنه *[āne]* suffiksi va uning گانه *[gāne],* وانه *[vāne]* hamda یانه *[yāne]* suffiksal allomorflari funksional-semantik xususiyatlari hamda kontekstda ishlatilish masalalarini ko‘rib chiqish maqsadida shu suffiksalar orqali hosil qilingan yasama so‘zlarni manbalar va badiiy adabiyotlarda keltirilgan misollar orqali tadqiqqa tortildi.

آنه *āne* suffiksining funksional jihatdan گانه *gāne,* وانه *vāne* hamda یانه *yāne* allomorflari mavjud. Mazkur allomorflarning paydo bo‘lishi marfemalar tutashuvi o‘rnida yuz beruvchu fonetik hodisalar bilan izohlanadi:

انه *āne* suffiksi undosh fonema bilan tugagan so‘z yasovchi asoslarga qo‘shiladi.

Sifat/sifatdosh + انه *āne:*

دوستانه *dustāne* – do‘stona

او لبخند زد و **دوستانه** گفت: "خوشحالم که دوباره تو را می‌بینم."

*U labxand zad va **dustāne** goft: Xošhālam ke dobāre to rā mibinam* [7;25-b.].

U jilmayib, ***do‘stona*** dedi: “Seni yana ko‘rib turganimdan xursandman”.

Yuqoridagi jumlada دوستانه *dustāne* – do‘stona yasama so‘zi (دوست *dust* – do‘st + انه *āne* shaklida hosil qilingan. Shunga o‘xshash model asosida yasalgan boshqa yasama so‘zlarni ham quyida ko‘rish mumkin:

شبانه *šabāne* – kechki (شب *šab* – kech + انه *āne*);

مادرانه *mādarāne* – onalarcha, onalarga xos (مادر *mādar*–ona+انه *āne]*).

Sifat + **انه** *āne:*

محزونانه *mahzunāne* – maxzunona *(*محزون *mahzun*–‘maxzun’+ **انه** *āne);*

عاقلانه*āyelāne* – oqilona (عاقل *āyel* – oqilona + **انه** *āne);*

متفرعنانه *motafar’anāne* – mutakabburona, mutakabburlik bilan (متفرعن *motafar’an* – ‘takabbur’ + **انه** *āne)*

e unlisi bilan tugagan so‘z yasovchi asoslarga انه *[āne]* suffiksi qo‘shilganda bir گ*gāf* undoshi ortishi natijasida گانه *gāne* suffiksal allomorfi vujudga kelgan. گانه *gāne* suffiksal nafaqat forsiy otlarga, balki arabiy o‘zlashgan sifat va sifatdoshlarga ham qo‘shilib ravish yasash xususiyatiga ega.

Ot +گانه *gāne*

بچگانه *bačegāne* – bolalarga xos

او **بچگانه** خندید و گفت: این بازی‌ها همیشه مرا خوشحال می‌کند.

*U **bačegāne** xandid va goft: In bāzihā hamiše marā xošhāl mikonad.*

U ***bolalarcha*** kuldi va dedi: Bu o‘yinlar har doim meni xursand qiladi.

Yuqoridagi jumlada بچگانه *bačegāne* – ‘bolalarga xos’ yasama so‘zi (بچه *bače* – ‘bola’+ گانه *gāne)* shaklida hosil qilingan.

Son +گانه *gāne*

سگانه *segāne* – uch taraflama, uch yoqlama (سه *[se]* + گانه *[gāne]);*

ā yoki i unlisi bilan tugagan so‘z yasovchi asoslarga آنه *āne* suffiksi qo‘shilganda bir ی *yāy* undoshi ortishi natijasida یانه *yāne* suffiksal allomorfi vujudga kelgan.

Masalan: *i* unlisi bilan tugagan asos + یانه *yāne;*

مخفیانه *maxfiyāne* –‘sirli ravishda’ (مخفی *maxfi*–sirli + یانه *yāne);*

سعد و سعید که مخفیانه این نقشه را شنیدند، پا به فرار گذاشتند.

Sa’d va Said ke maxfiyāne *in nayše rā šenidand, pā be farār gozāštand* [6;35-b.].

Sa’d va Sa’id bu rejani ***yashirincha*** eshitib qolib, qochib ketishdi.

Yuqoridagi jumlada مخفیانه *maxfiyāne* –sirli ravishda yasama so‘zi (مخفی *maxfi*–sirli + یانه *yāne)* shaklida hosil qilingan. Shunga o‘xshash model asosida yasalgan boshqa yasama so‘zlarni ham quyida ko‘rish mumkin:

تازیانه *tāziyāne* – qamchidek, jazolovchi tarzda, keskin tarzda;

ā unlisi bilan tugagan asos + یانه *yāne;*

دانایانه *dānāyāne* – donolarcha, ongli ravishda (دانا *dānā* –dono + یانه *yāne);*

گدایانه *gadāyāne* – gadoylarcha (گدا *gadā* – gadoy + یانه *yāne).*

u unli fonemasi bilan tugaydigan asoslardan keyin allomorflarning eski varianti وانه *vāne* vujudga keladi. وانه *vāne* suffiksal allomorfi unchalik sermahsul bo‘lmasa-da, ba’zi yasama ravishlarda saqlanib qolgan. Masalan:

جادوانه *jāduvāne* – jodu bilan, joduli

او **جادوانه** لبخند زد و گفت: امیدوارم همیشه خوشحال باشی

*U **jāduvāne** labxand zad va goft: Omidvāram hamiše xošhāl bāši* [6;72-b.].

U ***joduli*** jilmayib dedi: Umid qilamanki, doimo baxtli bo‘lasan.

Yuqoridagi jumlada جادوانه *jāduvāne* – ‘jodu bilan’, ‘joduli’ yasama so‘zi(جادو *jādu* – jodu + وانه *vāne* shaklida hosil qilingan. Shunga o‘xshash model asosida yasalgan boshqa yasama so‘zlarni ham quyida ko‘rish mumkin:

آهوانه *āhuvāne* – ohuga xos (آهو *āhu* – ohuga + وانه *vāne*);

آنه *āne* suffiksining گانه *gāne,* یانه *yāne* hamda وانه *vāne* suffiksal allomorflari vazifa jihatdan bir xil turdagi mahsuldor qo‘shimchalardir, ya’ni, o‘zi qo‘shilayotgan asosdan anglashilgan ma’noga o‘xshashlikni, belgiga xoslikni ifodalaydigan, fe’lga xoslangan ravishlarni yasaydi. Ushbu suffiksal allomorflar orqali yasalgan ravishlar barcha uslubga oid kontekstlarda faol ishtirok eta oladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu maqolada fors tilidagi ravish yasovchi آنه *[āne]* suffiksi va uning suffiksal allomorflari – گانه *[gāne]*, وانه *[vāne]* va یانه *[yāne]* – ning morfologik, fonetik, funksional va semantik xususiyatlari tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Har bir suffiksal allomorf o‘ziga xos fonetik shaklga ega bo‘lib, hosil qilinayotgan ravishning ma’nosi va ishlatilish kontekstiga mos keladi. Shu bilan birga, ularning fonetik shakllari hosil bo‘lish sharoitlariga qarab farqlanadi, ya’ni, آنه [āne] suffiksi turli unli yoki undoshlar bilan tugagan asoslarga qo‘shilganda turli allomorflar paydo bo‘ladi: گانه *[gāne]*, یانه *[yāne]* va وانه *[vāne].*

2. Ushbu allomorflar funksional jihatdan bir xil vazifani bajaradi – ular asosning semantik belgisini saqlagan holda, yangi ravish shakllarini hosil qiladi. Shu sababli ravish yasovchi suffiksal allomorflar fors tilidagi so‘zlarning stilistik va morfologik boyligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

3. آنه *[āne]* suffiksi va uning allomorflari turli kontekstlarda faol ishlatiladi, ular orqali hosil qilingan yasama ravishlar har qanday stilistik sharoitda ma’noni aniq ifodalaydi. Ba’zi allomorflar, masalan, وانه [vāne], kamroq mahsuldor bo‘lsa-da, an’anaviy va badiiy matnlarda saqlanib qolgan.

4. Allomorflarning hosil bo‘lishi fonetik qonuniyatlarga bog‘liq bo‘lib, undosh va unli fonemalar bilan tugagan asoslarga qo‘shilish orqali shakllanadi. Shu jarayon orqali morfologik variantlar – allomorflar – vujudga keladi va ular asosning semantik belgisini ravishlarda aks ettiradi.

5. Ravish hosil qiluvchi suffiksal allomorflar orqali yasalgan so‘zlar fors tilining lug‘at tarkibini boyitadi, turli fonetik va stilistik imkoniyatlarni oshiradi, tilning grammatik tizimini mukammallashtiradi va kontekstga, mos ravishda, so‘zlarni hosil qilish imkonini yaratadi.

Shu bilan آنه *[āne]* suffiksi va uning allomorflari fors tilida ravish yasashda sermahsul va stilistik jihatdan moslashuvchan vosita ekanligi aniqlandi. Ular nafaqat fonetik va morfologik qonuniyatlarga amal qiladi, balki semantik va funksional jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, fors tilining morfologik va leksik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. T., 2009, 264-bet.

(2). Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T., 2010, 312-bet.
(3). Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. М., изд-во МГУ, 1973, 199 с.
(4). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, "ЎзМЭ" давлат илмий нашриёти, 2002, 164-бет.
1. ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱ . ۲۲۲ ص.
2. سید حسن حسینی. شعرهای ماندگار .تهران: نشر نی، ۱۳۸۰. ص ۷۲
3. سید مهدی شجاعی. دو کبوتر، دو پنجره، یک پرواز .تهران ، ۱۳۸۲. ۱۰۸ ص.
4. ویدا شقاقی. مبانی صرف. – تهران، ۱۳۸۶. ۱۵۱ ص.

Аминова Зебо Пулатовна (негосударственное образовательное учреждение, университет Экономики и педагогики, Факультет иностранных языков, доцент кафедры "Русский язык и литература")

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВИДО-ВРЕМЕННЫХ ФОРМ ГЛАГОЛА В ПЕРЕВОДЕ: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности трансформации видовременных форм глагола в процессе художественного перевода. Анализируются причины отклонений от формального соответствия между оригиналом и переводом, обусловленные типологическими различиями языков, контекстуальными факторами и прагматическими установками переводчика.*

Ключевые слова: *перевод, глагол, категория вида, категория времени, видо-временные формы, переводческая трансформация, функциональная эквивалентность, прагматика.*

FE'LNING KO'RINISH-ZAMON SHAKLLARINING TARJIMADA TRANSFORMATSIYASI: LINGVISTIK VA PRAGMATIK JIHATLAR

Annotatsiya. *Maqolada badiiy tarjima jarayonida fe'lning ko'rinish–zamon shakllarining transformatsiyalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Asl matn va tarjima o'rtasida formal moslikdan chetga chiqish sabablari tillarning tipologik farqlari, kontekstual omillar hamda tarjimonning pragmatik yo'nalishlari bilan izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, fe'l, ko'rinish kategoriyasi, zamon kategoriyasi, ko'rinish–zamon shakllari, tarjima transformatsiyasi, funksional ekvivalentlik, pragmatika.*

TRANSFORMATION OF ASPECT–TENSE FORMS OF THE VERB IN TRANSLATION: LINGUISTIC AND PRAGMATIC ASPECTS

Annotation. *The article examines the features of transforming aspect–tense forms of the verb in the process of literary translation. It analyzes the reasons for deviations from formal correspondence between the source text and the translation, which are обусловлены typological differences between languages, contextual factors, and the translator's pragmatic intentions.*

Keywords: *translation, verb, category of aspect, category of tense, aspect–tense forms, translation transformation, functional equivalence, pragmatics.*

Введение. Категории вида и времени глагола относятся к числу базовых грамматических средств, формирующих временную и аспектуальную организацию высказывания (Бондарко, 1987; Маслов, 1987). Они отражают не только хронологическую локализацию действия, но и его внутреннюю структуру – процессуальность, завершённость, повторяемость и результативность (Comrie, 1976).

В переводе видо-временные формы глагола нередко подвергаются трансформациям, обусловленным не только расхождениями грамматических систем языков, но и дискурсивно-прагматическими факторами: типом повествования, жанровыми нормами, особенностями речевой характеристики персонажей и установками целевой аудитории (Комиссаров, 1990; Швейцер, 1988). В переводоведении такие преобразования рассматриваются как грамматические трансформации, направленные на достижение функциональной эквивалентности, при которой формальное несоответствие не трактуется как ошибка, если сохраняется коммуникативное и стилистическое воздействие текста (Baker, 2018).

Обзор литературы и методология. Функционально-семантический подход, разработанный А.В.Бондарко, позволяет рассматривать аспектуально-временные значения как результат взаимодействия грамматических, лексических и контекстуальных средств (Бондарко, 1987). Типологические различия языков играют ключевую роль в переводе: в русском языке категория вида представлена бинарной оппозицией совершенного и несовершенного вида, тогда как в английском и узбекском языках аспектуальность выражается преимущественно аналитически или контекстуально (Maslov, 1987; Comrie, 1976; Кононов, 1960; Юлдашев, 1996).